

RAHBAR MA'NAVIY FAZILATLARI O'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT SOHASI TARAQQIYOTINING ASOSI SIFATIDA

G'ulomova Muslimaxon Ahmdillo qizi

*Farg'ona viloyati, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining
Farg'ona mintaqaviy filiali, Professional ta'lim nazariyasi va metodikasi
(mutaxassisliklar bo'yicha) 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistondagi madaniyat va san'at muassasalaridagi rahbar kadrlarining ma'naviy axloqiy fazilatlari tahlil qilib berilgan bo'lib, rahbar va psixologik madaniyati ajdodlar ibratiga asoslanib, ko'rsatib berildi.

Tayanch so'zlar: Madaniyat va san'at ta'lim muassasalari, ta'lim-tarbiya, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, intellektual salohiyat, ma'naviy tarbiya.

Аннотация: В статье проанализированы духовно-нравственные качества руководителей и сотрудников учреждений культуры и искусства Узбекистана, а также обоснована и показана личность руководителя и педагога на основе научных, теоретических и педагогических принципов.

Ключевые слова: Образовательные учреждения культуры и искусства, образование, духовно-нравственные качества, интеллектуальный потенциал, духовное образование.

Annotation: In the article, the spiritual and moral qualities of leaders and staff of culture and art institutions in Uzbekistan were analyzed, and the personality of the leader and pedagogue was justified and shown on the basis of scientific, theoretical and pedagogical principles.

Key words: Culture and art educational institutions, education, spiritual and moral qualities, intellectual potential, spiritual education.

Forobiyning fikriga ko'ra, kasblarning "rais"lari 4 ta bo'lib, avval dehqonchilik, ikkinchi to'quvchilik, uchinchi bannolik (binokorlik), to'rtinchi soislik ("sois"-siyosat yurituvchi, boshqaruvchi, tashkilotchi ma'nosini bildiradi) hisoblanadi.

Bizning ajdodlarimiz ichida shunday rahbarlar bo'lganki: Amir Temur, Bobur, Feruz kabi ya'ni tashkilotchilar bo'lganligi, ular nafaqat o'z xalqi, balki butun insoniyat ravnaqi, uchun munosib hissa qo'shganlar.

Rahbarlik ma'naviyati deganda, rahbarning shakllangan (ichki) ruhiy quvvati.

Uning ma'naviy psixologik madaniyati ajdodlar ibratiga asoslanib, qadriyat darajasida qadrlanadigan, shaxs ma'naviy olamini tartibga soladigan ko'nikma darajasiga yetgan hissiy ko'nikmasiga darajasiga yetgan hissiy bilimlar majmuyidir. Rahbar o'z rahbarlik salohiyatini takomillashtirish uchun ma'naviy olamini boyituvchi bilimlarni egallash tashabbuskorlik qobiliyatini oshirishi zarur.

Rahbarning boshqaruv sa'nati sirlarini bilishi xodimlarni tanlashdan tortib ular bilan bog'liq ziddiyatli vaziyatlarda oqilona yechim topa olishi, o'zi ma'sul jabhada

yuksak mehnat samaradorligiga erishish uchun jamoaning buniyodkorlik kuchlarini safarbar eta olish. Samimiyat adolat, muomila, ishbilarmonlik asosiy muammo bilan ikkinchi darjali vazifalarni o'z vaqtida bilish, tashabbuskorlik optemizim rahbar madaniyatini tashkil etuvchi omillar. Rahbarning uzoqni ko'ra bilishi hayot va ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladigan murakkab vaziyatlarda o'zini yo'qotmasdan noan'anaviy kutilmagan yechimlar o'ylab topishi, jamoadagi har bir xodim, ishchi kungliga yo'l topa olishi rahabr mahoratining namyon bo'lishi hisoblanadi.

Boshqaruv jarayonini psixologik tahlil etish masalasi, avvalambor, rahbarning faoliyatini takomillashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun rahbarga qo'yiladigan talablar, ularni bajarishga moyillik va boshqaruv faoliyatini to'laqonli amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxs xususiyatlarini o'rganish zarurati tug'iladi.

Rahbar ma'naviy fazilatlari ham boshqaruvda eng muhim xususiyatlardan iboratdir. Ma'naviyat — inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat atamasining asosida „ma'no“ so'zi yotadi. Ma'lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo'ybasti, ko'rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqa kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma'naviyatdir. Oziq-ovqat odamga jismoniy quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy ozuqa va qudrat bag'ishlaydi. Ma'naviyat ma'rifat va madaniyat bilan bog'liq. Ma'naviyat odamlarda tap-tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga muttasil o'qish, o'rganish, tajriba orttirish orqaligina erishiladi. Ma'naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Ma'naviyatli odam yashashdan maqsad nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli o'tkazish yo'lini izlab topadi, muomala qilish madaniyatini egallaydi, har bir masalaga insof va adolat nuqtai nazaridan yondoshadi. Vijdon nima, yolg'on va rost nima, or-nomus nima, halol va harom nima — bularning hammasini bir-biridan ajrata oladi, hayotda yomonlikka boshlovchi xatti-harakatlardan voz kechadi, yaxshilikka boshlovchi amallarni bajaradi. Qisqasi, ma'naviyatda inson hayotining mazmuni aks etadi. Vatanni sevish, vatanparvarlik inson ma'naviyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ma'naviyat kamol topgan jamiyatlarda qobiliyat, iste'dod egalari shu jamiyatning, millatning yuzi, g'ururi, obro'-e'tibori hisoblanadi. Ma'naviyatli jamiyatda aql, sog'lom fikr, adolat va yaxshi xulq ustuvordir. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi kuchli bo'ladi, odamga nomunosib turli illatlar barham topadi. Millatning asrlar davomida shakllangan ildizlari, uning tarixiy tajribalari va ijtimoiymadaniy rivojlanishisiz ma'naviyatni tasavvur qilish qiyin. „Madaniyat avvalo ma'naviy boylik xosilasi. Siyosiy madaniyati yuksak rahbar millat davlat xalq manfaati nazaridan ish tutadi, umummanfaatni o'z shaxsiy ehtiyoj va manfaatlaridan ustun qo'yadi. Rahbar va rahbarlikka davogar shaxs alohida xulq atvorga, ma'naviyat va madaniyatga ega bo'lish uni doimiy ravishda takomillashtirib borish zarur. Buning uchun siyosiy hayotdan xabardor bo'lish yoki

iqtisodiy va kasbiy bilimlarni o'zlashtirishning o'zigina kifoya qilmaydi. Ular jahon tajribalari asosida shakllangan ilg'or boshqaruv malakalarini ham o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Bugungi rahbar bunga zimmasidagi vazifalarga yuksak ma'suliyat bilan yondashish o'ziga nisbatan talabchanlik orqali erishadi. Siyosat, iqtisod va ma'naviyatga dahldor kitoblar va mumtoz adabiyot tarixiy jarayonlarni chuqur mushohada qilish ham uning dunyoqarashini kengaytiradi. Agar aql zakovati tafakkuri ma'naviy kamoloti, madaniyati bilan rahbar mustaqil fikirlashdan mushohada qilishdan kundalik voqea hodisalarni teran tahlil etib borishdan uzoqlashsa rahbarlik talab etgan ma'naviyatdan uzoqlashib boradi¹. Hozirgi zamonda buyruq berish, tahdid qilish va boshqa salbiy xatti-harakatlar bilan jamoani boshqarib bo'lmaydi. Respublikamizda yuz berayotgan demokratik yangilanishlar, so'z va vijdon erkinligi, milliy o'zlikni anglash, huquqiy himoyalanganlik fuqarolar ongi va huquqiy madaniyatining yuksalishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar natijasida respublikamiz aholisi uchun mustaqil fikrlash va ish yuritish, shaxsiy rejalarni ro'yobga chiqarish yo'llarini izlash imkoniyatlari vujudga keldi. Shuning uchun xam xalqimiz davlatimizni "O'zbekiston – keng imkoniyatlar mamlakati" deb e'tirof etadi. Zamonaviy rahbar ijtimoiy hayotdagi munosabatlar, ularning tuzilishi va mohiyati bilan yaqindan tanish bo'lishi, boshqaruv jarayonida ularni hisobga olishi taqozo etiladi. Rahbar o'z boshqaruvi ostidagi kishilar, ijrochi-yordamchilar orasida o'zining har tomonlama ustuvorligi bilan obro'-e'tibor orttirishi lozim, aks holda ishlab chiqarish samaradorligi, xodimlarning ijodiy fikrlashi to'g'risida so'z bo'lishi ham mumkin emas. Rahbarning shaxs sifatida yuksak ma'naviyat egasi ekanligi, qat'iy xarakteri, milliy qiyofasidan tashqari yana qator quyidagi sifatlar lavozimning keyingi bosqichlari uchun imkon yaratib, istiqbol rejalarini ro'yobga chiqaradi. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bugungi kunda har sohada ishlayotgan rahbar kadrlarimiz qanchalik kuchli salohiyatga ega bo'lsa, ma'naviy fazilatlariga boy bo'lsa kelajagimiz uchun ham foydalidir.

FOYALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim tizimini boshqarish. -T.: "Turon iqbol": 2006. – 592 b.
2. Itsxak Kalderon Adizey "Mukammal rahbar" Zukko kitobxon 2022. 31.
3. Toshboyeva, H. (2021). ZAMONAVIY MENEJER VA YETAKCHI. Мир исследований, 1(1). извлечено от <https://journal.jspi.uz/index.php/journal/article/view/937>
4. Nazarov, T. (2021). TA'LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4423>
5. A.X.Xolov. O'zbekistonda zamonaviy rahbar kadrlarni shakllantirish tizimini takomillashtirish masalalari. Monografiya. – Toshkent: «Yangi kitob», 2020. –

6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoniga 1-ilova.